



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-oktabr*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 76-225-65-74*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 355 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 283 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-oktabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 18 502,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 109,3 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 651,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 118,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 17 851,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 503,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 116,3 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023-yil yanvar-oktabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	18 502,9	109,3
Termiz sh.	3366,7	110,2
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	733,8	112,1
Angor	883,1	110,0
Bandixon	274,8	111,9
Boysun	743,7	110,0
Muzrabot	779,6	108,8
Denov	3781,0	106,6
Jarqo'rg'on	1048,4	110,6
Qumqo'rg'on	740,1	114,2
Qiziriq	771,4	109,0
Sariosiyo	643,6	109,9
Termiz	347,6	108,4
Uzun	832,5	111,3
Sherobod	1084,5	109,1
Sho'rchi	1882,2	108,4


2024-yilning yanvar-oktabr oyida 2023-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan viloyatning Qumqo'rg'on (114,2 %), Oltinsoy (112,1 %) va Bandixon (111,9 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-oktabr)




So'ngi 5 yillikda (2020- 2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,4 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023-yil, 2024-yil yanvar-oktabr oylari)




2024-yilning yanvar-oktabr oyida o'sish sur'ati **109,3 %** ni tashkil qildi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 21,1 % bilan 3 781,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,5 % bilan 274,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra,

17 851,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 9,0 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,5 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 18,9 % ga oshdi va 651,9 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,5 % ulushiga to'g'ri keldi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (99,4 %), Boysun (99,4 %) va Angor (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz sh (6,3 %), Denov (5,5 %), Sherobod (2,6 %) va Jarqo'rg'on (2,4 %) tumanlarida kuzatildi.

3,5 %



96,5 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024-yilning yanvar-oktabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 6 374,8 ming. so'mni (2023-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 106,7 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (16 519,8 ming. so'm), Denov (8 917,5 ming. so'm) va Sho'rchi (8 158,6 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (ozuq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar tayanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-oktabr), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd so'm	2023-yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	3503,4	116,3
Termiz sh.	283,1	153,1
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	339,9	124,0
Angor	111,2	97,2
Bandixon	176,8	109,8
Boysun	232,7	128,9
Muzrabot	340,9	113,1
Denov	400,8	114,4
Jarqo'rg'on	193,2	107,9
Qumqo'rg'on	187,2	121,4
Qiziriq	259,7	123,2
Sariosiyo	257,3	114,8
Termiz	74,0	101,0
Uzun	256,3	116,8
Sherobod	116,7	101,3
Sho'rchi	273,6	101,5


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-oktabr)














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2024-yil yanvar-oktabr)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-oktabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3 503,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 116,3 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlariga ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 721,3 mlrd so'mni (122,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 782,1 mlrd so'mni tashkil etdi (110,9 %).













2024-yilning yanvar-oktabr oyida tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 721,3 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (887,5 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>887,5 mlrd so'm</p>  <p>51,6 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>179,7 mlrd so'm</p>  <p>10,4 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>163,3 mlrd so'm</p>  <p>9,5 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>50,0 mlrd so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>92,2 mlrd so'm</p>  <p>5,4 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>55,2 mlrd so'm</p>  <p>3,2 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>35,8 mlrd so'm</p>  <p>2,1 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>49,0 mlrd so'm</p>  <p>2,8 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>21,5 mlrd so'm</p>  <p>1,2 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>30,8 mlrd so'm</p>  <p>1,8 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>32,9 mlrd so'm</p>  <p>1,9 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>123,4</p> <p>7,2 %</p>

2024-yilning yanvar-oktabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 782,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 275,8 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 486,2mlrd so'mni, otlar – 15,4 mlrd so'mni, parrandalar – 4,7 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>837,6 mlrd so'm</p>  <p>47,0 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>248,2 mlrd so'm</p>  <p>13,9 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>190,0 mlrd so'm</p>  <p>10,7 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>410,4 mlrd so'm</p>  <p>23,0 %</p>	<p>Otlar</p> <p>15,4 mlrd so'm</p>  <p>0,9 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>75,8 mlrd so'm</p>  <p>4,2 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,9 mlrd so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>2,0 mlrd so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,8 mlrd so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0 mlrd so'm</p>  <p>%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 543 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 542 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so'm	2023-yil yanvar – oktabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	6352,4	108,8
Termiz sh.	174,9	106,7
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	12,3	115,1
Angor	13,7	109,4
Bandixon	4,1	122,8
Boysun	10,7	111,3
Muzrabot	11,3	117,1
Denov	74,0	104,0
Jarqo'rg'on	24,6	102,2
Qumqo'rg'on	10,8	107,8
Qiziriq	8,8	105,8
Sariosiyo	24,9	119,1
Termiz	35,5	108,3
Uzun	13,1	112,0
Sherobod	21,5	116,0
Sho'rchi	18,4	118,2

2024-yilning yanvar-oktabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 6 352,4 mlrd so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	1532,9	100,0
Termiz sh.	532,3	34,7
tumanlar:		
Oltinsoy	4,3	0,3
Angor	29,0	1,9
Bandixon	2,2	0,1
Boysun	2,7	0,2
Muzrabot	1,2	0,1
Denov	774,8	50,5
Jarqo'rg'on	75,0	4,9
Qumqo'rg'on	22,2	1,5
Qiziriq	14,5	0,9
Sariosiyo	6,9	0,4
Termiz	24,8	1,6
Uzun	1,0	0,1
Sherobod	8,9	0,6
Sho'rchi	33,1	2,2


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (774,8 mlrd so'm) va Termiz shahri 532,3 mlrd so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so‘m)




2024-yilning yanvar-oktabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 532,9 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 23,0 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 439,8 mlrd so‘m (o‘shish sur‘ati – 57,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 093,1 mlrd so‘mni (o‘shish sur‘ati –88,9 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-oktabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 7 704,8 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

10,8 %

834,5 mlrd so‘m

Yirik korxonalar

89,2 %

6 870,3 mlrd so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 6 870,3 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 89,2 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 320 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 301 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Oltinsoy (45,1 m) , Angor (190,9 %) va Denov (160,6 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd so'm	2023-yil yanvar- oktabr oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	7704,8	107,1
Termiz sh.	1127,2	104,0
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	194,2	153,9
Angor	115,8	102,2
Bandixon	349,9	105,7
Boysun	22,7	109,8
Muzrabot	344,5	170,7
Denov	1627,1	108,0
Jarqo'rg'on	132,4	98,4
Qumqo'rg'on	213,3	71,5
Qiziriq	33,9	99,2
Sariosiyo	109,8	111,3
Termiz	295,1	118,1
Uzun	53,6	54,9
Sherobod	266,8	138,6
Sho'rchi	250,7	65,2